

## **O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA DARSINING AHAMIYATI**

**Navbahor Hasanova**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika institute,  
Musiqiy ta'lif kafedrasi katta o'qituvchi.

**Orziqulova Husnora**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti  
Musiqiy ta'lif yo'nalishi 3- bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa darslari orqali o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllamtirish bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В статье представлены теоретические сведения о формировании национальной и межкультурной компетенции у учащихся на уроках музыки.

**Annotation:** The article presents theoretical information on the formation of national and intercultural competence among students in music lessons.

Tayanch so'zlar: dars, musiqa, madaniyat, milliy tarbiya, estetik tarbiya, dars metodlari, dars vositalari, ijodiy faoliyat.

**Ключевые слова:** урок, музыка, культура, народное воспитание, эстетическое воспитание, методика обучения, учебные пособия, творческая деятельность.

**Key words:** lesson, music, culture, folk education, aesthetic education, teaching methods, teaching aids, creative activity.

Bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch" asarida musiqa san'ati haqida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Musiqaning inson ruhiy kamolotiga ta'siri haqida gapirib albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmasligini ta'kidlaganlar. Prezidentimizning "Bolalar musiqa va san'at muktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan chora tadbirlari"<sup>1</sup> to'g'risidagi farmoyishlari ham misiqa san'atini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganining natijasidir.

Musiqa insonning shakllanishida muhim rol oýnaydi; uning hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim muktablarining asosiy vaziyatlaridan nafosat olamiga olib kirish va ma'noviy tarbiya berish. Bunda

<sup>1</sup>"Xalq so'zi" ro'znomasi T. 8.01. 2008 -yil 4- bet

o'qituvchi bolalarni muhim bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ifodali "jonli" qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobilyatini, dunyo qarashini kengaytiradi, emotsiyonal his-tugulgarda ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini, voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tugularning shaklan tuzilishi nazarda tutiladi. O'qituvchining darsga ijobiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qoyadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlaydi.
- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, yan'i bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, teatr, mezyelarga borib ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi lozim. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol oynaydi. Texnika vositalari metodik ko'rgazmali qurollar pianino cholg'um asbobi va o'zbek xalq cholg'um asboblari bilan jihozlangan bo'lishi dasturdan foydalanib dars reja konspektlarini tuzib, yangi texnologiyalarni qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishini talab etiladi.

### Materiallar va metodlar.

*Dars – maktabdagи o'quv ishining tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruhi – sinf bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishishi uchun xilma-xil metodlardan foydalaniladi.*

*O'qitish jarayonini o'qituvchi bilan shug'ullanuvchilarning biror maqsadga qaratilgan, izchillik bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati, deb qarash mumkin.*

Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalashi vazifalari hal etiladi. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilari uchun tayanch kompetensiylar qo'yilgan bo'lib, ***musiqa darslarida milliy va umummadaniy kompetensiya shakllanishiga xizmat qiladi (milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarni tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqati.)***

Musiqa darsida o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. Musiqa o'qituvchisi darsda istisnosiz, barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning o'zlari orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsining o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarini hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Har bir musiqa darsi o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitish, ularning ong-bilim doiralarining kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi yoki ilgari o'rganganlarini takomillashtirish kerak.

Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqa sohasidan har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutiladi, ularning musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi.

Musiqa darsi musiqa ijodining quvonchini anglash tuyg'usini beradi. Go'zallik, dahldorlik tuyg'usini kompozitor yoki xalq musiqa asariga jo qilgan axloqiy-estetik mazmundan huzurlanish qobiliyatini shakllantiradi. Darsda ijodiy faoliyatning bir-biri bilan mustahkam bog'langan hamma turlari samarali bo'ladi.

Ayni vaqtda dars o'zining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi bilan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularda ilmiy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni, shaxsiy ma'naviy sifatlarni shakllantirib katta tarbiyaviy qimmatga ega bo'lishi zarur.

Darsda o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish, ijodiy kamol toptirish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirmog'i kerak. Bu musiqa pedagogikasining g'oyat muhim tamoyillaridan biridir.

### **Muhokama va natijalar.**

Barcha fanlarda bo`lgani sari musiqiy ta'limni ham milliy negizida yangitdan shakllantirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shunga ko`ra musiqa bo`yicha yangi o'quv dasturlari, darsliklar yaratildi va bo`limlarni takomillashtirish bo`yicha ishlar hozirgi kunda ham qizg'in davom etmoqda.

Albatta, yosh avlodni milliy ma'naviy ruhda tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar va darsliklar milliy musiqiy ta'limning mazmuni va mohiyatini belgilab berish bilan ahamiyatlidir.

Maktab o'qituvchilarni professional musiqa faoliyatiga tayyorlaydi. Biroq, musiqani tushunish, uni idrok qilish va undan ijodiy ta'sirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqa madaniyatining go'yat xilma-xil shakllarda musiqaviy-estetik faoliyatning asosiy bilimlariga, ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tinglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar o'ziga xos bo'lmog'i lozim.

Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- musiqa darsi – ta’lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining kompleks tarzida amalga oshirilishini nazarda tutadi;
- O’quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlarga ta’sir o’tkazadi;
- o’quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qadrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- ijrochilik madaniyatini va ijodkorlik salohiyatini oshiradi;
- dunyoqarashini, axloqiy, estetik irodaviy fazilatlarini mehnatga munosabatini rivojlantiradi;
- dars o’tilishi uning o’tilish shakliga ko’ra qat’iy bir tizim bo’yicha olib boriladi:
  - muayyan boshlanishidan, darsning maqsad va vazifalarini belgilashdan, musiqiy materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasini berishdan iborat bo’ladi;
  - Musiqaviy faoliyat turlari o’zaro bir-biri bilan bog’langan bo’lishi va bir-birini to’ldirishi kerak;
  - dars o’qitish tamoyillariga muvofiq bo’ladi: u tarbiyaviy ta’sir o’tkazadi;
  - ilmiy tushunish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarini puxta va ongli tarzda o’zlashtirilishiga, musiqaviy malaka va ko’nikmalarini shakllanishiga;
  - erkin ijod qilishga yordam beradi;
  - dars mazmuni o’quv dasturiga muvofiq bo’lib, u boshqa darslar tizimidagi bog’inlarni qamrab oladi;
  - Ilgari qanaqa asar o’rgangani va muktab o’quvchilari mazkur darsdan keyin nimalarni o’rganishlari zarurligini ham yodda tutishi shart;
  - Faqatgina yodda tutish va bilish emas, balki musiqa faoliyatları davomida keyinchalik o’rganilishi lozim bo’lgan ba’zi asarlarni oldindan tanishtirib borib, muvaffaqiyatga erishishi mumkin.
- O’qituvchi, shuningdek, maktabdagi aniq vaziyati musiqa darsiga doir jihozlarni, texnikaviy vositalarni mahalliy uslublar va tabiiy shart-sharoitlarni va boshqa jarayonlarni hisobga oladi. Musiqa darsi ta’lim berishdan tashqari tarbiyaviy maqsad va vazifalarni ham o’z ichiga oladi. Ular o’quv materiallari ning mazmuni bilan ham, shuningdek, muktab o’quvchilari shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan umumiy maqsadlar bilan ham belgilanadi, tarbiyaviy vazifalar shaxsiy axloqiy, irodaviy intelektual, emotsiyonal fazilatlarni shakllantirish bilan bog’liq bo’lishi mumkin. dars o’quvchilarni tarbiyalashning uzlusiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi.

Musiqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, maktabda musiqadan ta'lim berishni faol shakli bo'lган jamoa bo'lib qo'shiq aytishga taalluqlidir. Chuqur xalq an'analariga ega bo'lган jamoa bo'lib qo'shiq aytish faqat musiqa qobiliyatlarini emas, balki harakter sifatini, dunyoqarashni, badiiy didini, fantaziyani, estetik tuyg'uni ham rivojlantiradi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytish darsda olib boriladigan ishlarning xilma-xil shakllarni: qo'shish ijro etishni, musiqa savodini, musiqani idrok qilishni, musiqa asboblarida chalishni, vokal ijrochiligini o'zida birlashtiradi.

Musiqa asarining mazmunini tinglovchining umumiy madaniyatiga, o'z navbatida tinglovchi e'tiborining faollik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lган tinglovchilarning idroki boyroq bo'ladi. Musiqani tushunadigan o'quvchi badiiy didining yuksak darajasi bilan ajralib turadi, musiqa shaklining o'ziga xos tomonini, mazmunini, musiqaning rivojlanish tarixini tushunish asosida tinglovchi sifatida qayta tajribaga ega bo'lish, musiqaviy-ijodiy faoliyat sohasida rivojlangan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish asosidagina musiqa asarini to'laqonli idrok qilish mumkin. Musiqa darsining maqsadi ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Musiqaviy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlanirish va boyitish musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligini puxta o'yangan izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak. Jamoa, guruh shaklida va yakka tarzda ishslashni mohirlik bilan qo'shib olib borish darsni tashkil etishda asosiy masala hisoblanadi. O'quvchi o'quv topshiriqlarni tashkil eta olishi, rejalashtira bilishi va bajara olishi uchun uni jamoa bo'lib ham, yakka tarzda ishslashga o'rgatish muhim ahamiyatga egadir.

Har qanday dars o'quvchining maktab o'quvchilari o'quv faoliyati ustidan nazorat qilib borishni taqozo etadi. Bu o'quv materiallarini tushuntirish va o'zlashtirish harakterini, o'quv va ko'nikmalarini shakllanish jarayonini ko'z oldimizga keltirish imkonini beradi. Maktab o'quvchilari o'qishning borishini tahlil qilish, o'qituvchiga darsning ijobiy jihatlarini rivojlanirish va ko'zga chalingan salbiy holatlarni kamaytirish maqsadida unga tegishli tuzatish lar kiritish imkonini beradi. Musiqa darslarining vazifasi bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondashishiga o'rgatishdan iboratdir. Hozirgi zamon musiqa darsi huddi ana shu vazifani hal qilmog'i kerak va bu vazifani qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan holda hal qilsa, maktab o'quvchilariga faqatgina musiqaviy tarbiya berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Har bir fan o'qituvchisi singari musiqa o'qituvchisining shaxsining qimmatiga baho berish tizimida uning professional yo'nalishi muhim rol o'ynaydiki, uning negizida pedagogik faoliyatga bo'lган ehtiyoj yetadi. U o'zida:

bolalarda qiziqishni va muhabbatni, pedagogik ishga havasini, psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlikni, pedagogik odobni, pedagogik tasavvurni, tashkilotchilik qobiliyatini, haqgo'ylikni, dilkashlikni, talabgorlik va qat'iylik, sobitqadamlilik, vazminlikni, chidamlilikni, o'zi haqida fikrga ega bo'lishni, professional ish qobiliyatini, ma'naviy, eng avvalo, bilish ehtiyojini va qiziqishini, intelektual faollikni, yangilikni his eta olishni, pedagogic bilimni mjstaqil ravishta oshirishga tayyorgarlikni mujassamlashtirgandir. Musiqa bola hissiyotini, ayniqsa, emotsiyal, estetik hissiyotini faol rivojlaniradi. Musiqa bola ijodiy iste'dodining rivojlanishiga turtki beradi. Musiqa bola ruhiga faol ta'sir etadi, uning axloqiy-estetik qiyofasi shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois o'quvchilarga inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyalashning bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisi oldida quydagi vazifalar turadi:

- *o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirish;*
- *musiqaviy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;*
- *musiqa haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish;*
- *musiqa faoliaytlari jarayonida badiiy ijodkorlik his-tuyg'ularni rivojlantirish;*
- *asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida bolalarni ahloqiy-estetik tarbiyalash;*
- *musiqa darslari jarayonida kasb-hunar va mehnatga havas uyg'otish.*

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining professional darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda musiqa darsi o'quvchilarning maamlakat kelajak istiqboli har tomonlama rivojlangan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishiga bog'liq ekanligi bugungi kunda sir emas. Buni har bir pedagog aniq va ravshan his qilishi zarur.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili, dini va e'tiqodidan qatiy nazar har bir fuqaroning yagona vatan baxti uchun doimo masuliyat sezib yashashga chorlash ajdodlarimizning bebafo merosi va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, komil insonlarni tarbiyalash milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadidir.

Umumta'lim maktablarining asosiy vaziyatlaridan nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirish emas, balki o'quvchilar ongini, voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki histugularning shaklan tuzilishi nazarda tutiladi.O'qituvchining darsga ijobiyl

tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlaydi.
- hayot va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, yan'i bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, teatr, mezyelarga borib ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi lozim. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol oýnaydi. Texnika vositalari metodik ko'rgazmali quollar pianino cholgú asbobi va o'zbek xalq cholgú asboblari bilan jihozlangan bo'lishi dasturdan foydalanib dars reja konseptlarini tuzib, yangi texnologiyalarni qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishini talab etiladi. Bolalarning barchasi dastlabki musiqiy tarbiyaning negizida yotadi. 'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat ba badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni taebiyalashga xizmat qiladi. Bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan muhabbatiga, ijodkorligiga, ijrochiligiga, talanti va iste'dodiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun musiqa darsiga ajratilgan xona keng, yorug'lik bolalarning chap tomonidan tushib turadigan, havosi yangilanib turadigan bo'lishi lozim. Xona zarur ashyolar bilan jihozlanishi shart. Doskaning teng yarmida nota yo'li bo'lishi kerak. Xonada musiqa asbobi, iloji bo'lsa fortepiano, magnitofon yoki disk qo'yuvchi texnik moslama hamda barcha sinflar uchun musiqa tinglash va jamoa bo'lib kuylashga doir asarlar yo zib olingan, magnit tasmalari va disketlar to'plami bo'lishi lozim. Yana xonada plakatlar, testlar, nazorat ishlari, solfedjio va ashula to'plamlarini qo'yish va saqlashga shkaf ham bo'lishi zarur.

*Xona devorlariga bolalar kompozitorlarining portretlari, davlat ramzları, derazalarga yorug' tushishiga halaqit bermaydigan pardalar osib qo'yish kerak. Sinfdagı hamma jihozlar o'z joy-joyiga qo'yilishi, ko'rinishi shunday chiroyli bo'lishi zarurki, o'qituvchi sinfga kirib kelganda o'zini konsert zaliga kirib kelgandek his qilsin. Lekin xonani ortiqcha bezab, bachkanalashtirib yubormaslik kerak.*

*O'qituvchi juda talabchan, lekin shu bilan birga qo'ygan talablariadolatli va o'quvchilarga beg'araz munosabatda bo'lishi lozim. Biroq haddan tashqari talabchan bo'lish va bolalarni jiddiy va qo'rquv ostida tutib turish yaramaydi.*

*O'qituvchi ayrim vaqtarda bolalarning arzimagan sho'xligini "sezmasligi", darsdan biroz chetga chiqib, boalarga dam berish maqsadida bolalarbop so;zlar bilan xazillashib qoyish ham mumkin.*

Shuni ham bilish zarurki, o'qituvchi o'z obro'yiga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. Darsga kiriladigan barcha sinflarda o'quvchilar o'z o'qituvchilarga tanqidiy ko'z bilan qaraydilar, ba'zi o'qituvchilarning bilimi va yaxshi sifatlari uchun hurmat qilsalar, boshqalarning shu xususiyatlari bo'limgani uchun hurmat qilmaydilar.

Xulosa qilib aytganda musiqa o'qituvchisi cholg'u asbobini jozibali chalssa, qo'shiqni yoqimli kuylasa, musiqa janrlari va kompozitorlar haqidagi hikoyalari bolalani maftun etsa, 45 daqiqalik darsda o'zini o'qituvchilik rolini qoyilmaqom qilib ijro etsa, har qanday vaziyatda bolalar bilan ijodiy va ijobiy munosabatlar o'rnatib, bolalar qalbiga yo'l topa olsa, bunday o'qituvchi bolalar mehriga muyassar bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yngilmas kuch. T. N. Ma'naviyat – 2008-yil.
2. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori.
3. To'xtaxodjayeva M.X. umumiyl tahriri ostida. Pedagogika.- T.: "Faylasuflar millay jamiyati". – 2010
4. Fayziyeva O. "Maktabda musiqa".- Toshkent. – 1991.
5. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. – Namangan. – 2009
6. E.Fayzullayev.Methodological basis of classical music in the development Of artistic religion for future music teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilltation. 20 may.2020 yil.
7. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent, Ma'naviyat. 2008-yil.
8. "Xalq so'zi" ro'znomasi T. 8.01. 2008 -yil 4- bet.
- 9.E. Abdukarimova. Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim. Fan va jamiyat ilmiy metodik jurnal.2019yil.№1(61)
- 10.Nurmatov Musiqa va estetik madaniyat. Musiqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. –T.: TDPI, 1992yil. -3 b.